



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **ABBREVIATURALARNING TURLI TIZIMLI TILLARDA TILSHINOSLIK OBYEKTI SIFATIDA**

**Salomova Gavhar Abdinazarovna**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, dotsent (PhD)

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada abbreviatura (akronim, qisqartma)larning ingliz tilshunosligida etimologik, struktur-semantik va leksik o'rganilishi va tahlil qilish masalalari ilgari surilgan. Maqolada qisqartmalarning shakllanish mexanizmlari, strukturaviy va semantik xususiyatlari hamda ularning nutq jarayonidagi funksional imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xususan, ingliz va o'zbek tillari misolida abbreviaturalarning lingvistik tabiati, ularning analitik va sintetik til tizimlaridagi o'ziga xos jihatlari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** abbreviatura, qisqartma, til tizimi, analitik va sintetik tillar, lingvopragmatika, diskurs, til iqtisodiyoligi, qiyosiy-tipologik tahlil.

## **АББРЕВИАТУРЫ КАК ОБЪЕКТ ЛИНГВИСТИКИ В ЯЗЫКАХ РАЗЛИЧНЫХ ТИПОВ**

**Саломова Гавхар Абдиназаровна**

Термезский университет экономики и сервиса, доцент (PhD)

### **Аннотация**

В данной статье рассматриваются вопросы этимологического, структурно-семантического и лексического изучения и анализа аббревиатур (акронимов, сокращений) в английском языкознании. В работе анализируются механизмы образования сокращений, их структурные и семантические особенности, а также функциональные возможности в процессе речи. В частности, на примере английского и узбекского языков раскрывается лингвистическая природа аббревиатур и выявляются их специфические особенности в аналитических и синтетических языковых системах.

**Ключевые слова:** аббревиатура, сокращение, языковая система, аналитические и синтетические языки, лингвопрагматика, дискурс, языковая экономия, сравнительно-типологический анализ.

## **ABBREVIATIONS AS AN OBJECT OF LINGUISTICS IN LANGUAGES OF DIFFERENT SYSTEMS**

**Salomova Gavhar Abdinazarovna**

Termez University of Economics and Service, Associate Professor (PhD)

### **Abstract**

This article addresses the issues of etymological, structural-semantic, and lexical study and analysis of abbreviations (acronyms, shortenings) in English linguistics. The paper analyzes the mechanisms of abbreviation formation, their structural and semantic features, as well as their functional potential in the process of communication. In particular, the linguistic nature of abbreviations is revealed through examples from English and Uzbek, highlighting their specific characteristics within analytic and synthetic language systems.

**Keywords:** abbreviation, shortening, language system, analytic and synthetic languages, linguopragmatics, discourse, language economy, comparative-typological analysis.

Zamonaviy tilshunoslikda abbreviaturalar masalasi til birliklarining shakllanishi, qisqarishi, ma'no sig'imi va kommunikativ funksiyasini o'rganishda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xalqaro aloqalarning kengayishi hamda ilm-fan, texnika, siyosat, iqtisodiyot va ommaviy kommunikatsiya sohalarida tezkor axborot almashinuvi ehtiyoji abbreviaturalarning faol qo'llanishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda qisqartma birliklar nafaqat yozma nutqda, balki og'zaki muloqotda, ommaviy axborot vositalarida, rasmiy-huquqiy hujjatlarda, internet diskursida va ilmiy terminologiyada ham keng tarqalgan til hodisasiga aylangan.

Abbreviatura til tizimida murakkab nominativ birlik sifatida namoyon bo'ladi. U bir tomondan so'z yasalishi jarayonining mahsuli bo'lsa, ikkinchi tomondan, leksik-semantik, fonetik, grafik va pragmatik xususiyatlarga ega mustaqil til birligi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Shu jihatdan abbreviaturalarni

faqat qisqartirish natijasi sifatida emas, balki tilning iqtisodiylik tamoyili, nominativ ehtiyoj, terminologik aniqlik va kommunikativ qulaylik bilan bog‘liq lingvistik hodisa sifatida o‘rganish zarur. Ayniqsa, turli tizimli tillarda abbreviaturalarning hosil bo‘lish usullari, tuzilish modellari, talaffuz xususiyatlari, yozuvdagi ifodasi va semantik moslashuvi bir-biridan farq qilishi ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Turli tizimli tillar materialida abbreviaturalarni tadqiq etish qiyosiy tilshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir tilning fonetik tuzilishi, morfologik qurilishi, grafik tizimi va so‘z yasash imkoniyatlari abbreviaturalarning shakllanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, ingliz tilida xalqaro terminlar, tashkilot nomlari, texnologik birliklar va internet muloqotiga oid qisqartmalar juda faol qo‘llansa, o‘zbek tilida abbreviaturalarning shakllanishi milliy til me‘yorlari, lotin yozuviga asoslangan imlo qoidalari va sohaviy terminologiya talablari bilan bog‘liq holda rivojlanmoqda. Rus tilida esa abbreviaturalar tarixan rasmiy, siyosiy, ilmiy va ma‘muriy uslubda keng shakllangan bo‘lib, ularning ayrim turlari mustaqil so‘z sifatida leksiklashib ketgan.

Abbreviaturalar tilshunoslik obyekti sifatida bir necha yo‘nalishda o‘rganiladi. Birinchidan, ular so‘z yasalishi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi, ya‘ni qisqartma birliklarning qanday usullar orqali hosil bo‘lishi aniqlanadi. Ikkinchidan, abbreviaturalarning semantik xususiyatlari, ya‘ni dastlabki to‘liq birikma bilan qisqartma shakl o‘rtasidagi ma‘no munosabati o‘rganiladi. Uchinchidan, ularning fonetik va grafik jihatlari, xususan, harfma-harf o‘qilishi, bo‘g‘in asosida talaffuz qilinishi yoki akronim sifatida shakllanishi tahlil etiladi. To‘rtinchidan, abbreviaturalarning uslubiy va pragmatik vazifalari, ya‘ni nutqda ixchamlik, tezkorlik, rasmiylik, ekspressivlik yoki guruhga xoslikni ifodalashdagi o‘rni aniqlanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda qisqartmalar, ya‘ni abbreviaturalar, til tizimining faol va dinamik unsurlaridan biri sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. Globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivoji hamda kommunikatsiya jarayonlarining tezlashuvi natijasida til birliklarini ixchamlashtirish ehtiyoji ortib bormoqda. Shu jarayonda abbreviaturalar nafaqat til iqtisodiyligini ta‘minlovchi vosita, balki nutqning ekspressivligi va pragmatik samaradorligini oshiruvchi muhim lingvistik hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda [1].

Abbreviaturalar turli tizimli tillarda – masalan, analitik va sintetik tillarda – o‘ziga xos strukturaviy, semantik va funksional xususiyatlarga ega. Xususan, ingliz tilida qisqartmalar ko‘proq grafik va fonetik ixchamlik asosida shakllansa, o‘zbek tilida esa ular morfologik moslashuv va milliy til me‘yorlari bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llaniladi. Shu bois abbreviaturalarning turli til tizimlaridagi namoyon bo‘lishi, ularning shakllanish mexanizmlari, qo‘llanish doirasi hamda lingvopragmatik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot ishida abbreviaturalar turli tizimli tillarda tilshunoslik obyekti sifatida kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – qisqartmalarining strukturaviy-tipologik xususiyatlarini aniqlash, ularning semantik yuklamasi va nutqdagi funksional imkoniyatlarini ochib berishdan iborat. Shuningdek, ish doirasida abbreviaturalarning lingvistik tabiati, ularning hosil bo‘lish usullari hamda zamonaviy diskursdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda qisqartmalar ilmiy, texnik, ijtimoiy-siyosiy va internet diskursida keng qo‘llanilib, til taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biriga aylanmoqda. Ularni tizimli ravishda o‘rganish esa nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy tarjimashunoslik, terminologiya va kommunikativ lingvistika uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Maqolada abbreviaturalarning zamonaviy kommunikatsiya, xususan, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va internet diskursidagi o‘rni ham yoritiladi. Shuningdek, qisqartmalarining til iqtisodiyligi, ekspressivlik va pragmatik ta‘sir kuchini oshirishdagi roli asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari abbreviaturalarning nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq anglash, ularni tarjima jarayonida to‘g‘ri qo‘llash hamda til o‘qitish amaliyotida samarali foydalanish imkonini beradi [2].

XX asrning 50-yillaridan boshlab o‘zbek tilshunosligida abbreviatura rivojlanishining yangi bosqichi boshlanadi. Bu jarayon qisqartmalarining ommaviy tarqalishi va jadal shakllanishi bilan bevosita bog‘liq. Boshqa tadqiqotchilar esa o‘z e‘tiborini alohida, ammo unchalik muhim bo‘lmagan muammolarga qaratadilar, bu esa ko‘p jihatdan o‘rganilayotgan jarayonning ham, hal qilinayotgan vazifalarning ham murakkabligi bilan bog‘liq [3].

V.Z. Sannikov o‘z ilmiy izlanishlarida “qisqartmalar tinish belgilari tizimiga o‘xshash jarayon” degan fikrni ilgari suradi, ya‘ni ular og‘zaki til hodisalari bilan sezilarli aloqaga ega emas, balki shartli belgi sifatida xizmat qiladi [4].

A.M. Suxotin grafik qisqartmalar bo'yicha tadqiqotlarida qisqartmalarni quyidagicha ta'riflaydi: "qisqartmalar til asosi emas, balki to'liq yoki qisman qisqartmalardir, bu esa so'zga ta'sir qilmaydi" [5]. Shuning uchun A.M. Suxotin grafik qisqartmalarni tildan tashqari birlik sifatida qaraydi. Boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham taxminan shunga yaqin fikrlar bildirilgan. Masalan, M.M. Segal "qisqartmalar tilga mutlaqo begona narsa kabi ko'rinadi" deb ta'kidlaydi [6].

Ma'lumki, har bir tilning so'z uzunligi cheksiz emas va u muayyan tizim tomonidan tartibga solinadi. Boshqa tomondan, so'zning uzunligi mavjud gipotezaga ko'ra, unga kiritilgan elementlar sonidan oshmaydi. Ingliz va o'zbek tillari agglutinativ tillar bo'lib, ularda ko'pkomponentli bo'g'inli qisqartmalarni shakllantirish imkoniyatlari kengdir. Biroq, mavjud materiallarda asosan uch komponentli bo'g'inli qisqartmalar qayd etilgan bo'lib, ular ingliz va o'zbek tillarining oddiy so'zlari uzunligiga mos keladi. Bo'g'inli qisqartmalar elementlarining moslashuvchanligida tovushlarning fonetik muvofiqligi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar.

Qisqartmalarining etimologik o'rganilishi – bu qisqartirilgan so'z va iboralarning kelib chiqishi, tarkibiy qismlarining ma'nosi hamda tilga kirib kelish tarixini tadqiq qilishni anglatadi. Qisqartmalar (abbreviaturalar) zamonaviy tilshunoslikda leksik qatlamning muhim qismi hisoblanib, ularning etimologiyasi quyidagi jihatlar orqali o'rganiladi:

Qisqartmalarining kelib chiqish manbalari.

Qisqartmalar, asosan, uzoq nomlarni soddalashtirish maqsadida paydo bo'ladi. Ularning etimologik ildizlari ko'pincha quyidagilarga borib taqaladi:

- siyosiy va ijtimoiy atamalar (masalan, BMT — Birlashgan Millatlar Tashkiloti);
- ilmiy va texnik terminlar (masalan, AES — Atom elektr stansiyasi);
- tashkilot va muassasa nomlari (masalan, SamDU — Samarqand davlat universiteti) [7].

Qisqartmaning o'zi emas, balki uning tarkibidagi har bir harf yoki bo'g'in qayta tiklanadi va tahlil qilinadi. Bunda:

- o'zlashgan qatlam: boshqa tillardan (ko'pincha rus yoki ingliz tili orqali) kirib kelgan qisqartmalar (masalan, NATO, UNESCO);
- o'z qatlam: o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida shakllangan qisqartmalar (masalan, O'zR — O'zbekiston Respublikasi).

Qisqartmalarining etimologiyasi ularning yozilishi bilan ham bog'liq. O'zbek tilida qisqartmalarining ko'pchilik turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi (masalan, ToshDUning, SamDUga). Qisqartmalar vaqt o'tishi bilan ma'nosini o'zgartirishi yoki umuman iste'moldan chiqib ketishi mumkin. Ularning paydo bo'lish davri (etimologik pometalari) orqali tahlil qilinadi. Etimologik lug'atlarda qisqartmalarining kelib chiqishi va ularning tarkibiy qismlari tarixiy tahlil asosida yoritiladi [8].

Xulosa qilib aytganda, o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tillardagi qisqartmalar turli strukturaviy turlarga bo'linadi: bosh harfli, bo'g'inli, qisman qisqartirilgan hamda grafik qisqartmalar. Ularning qo'llanish darajasi yozma hujjatlar va turli matn turlarida farqlanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Сапогова Л. И. Сокращения как словообразовательный процесс в английском языке // Вопросы общего и романогерманского языкознания. – Уфа, 1965. – Вып. 2. – С. 42.
2. Борисов В. В. Аббревиация и акронимия: военные и научно-технические сокращения в иностранных языках. – М., 1972. – С. 112.
3. Санников В. З. О русских графических сокращениях // О современной русской орфографии. – М., 1964. – С. 75–77.
4. Сухотин А. М. Проблема «сокращённых слов» в языках СССР // Письменность и революция. – М., 1933. – № 1. – С. 151–160.
5. Сегаль М. М. Аббревиация и аббревиатуры в современном английском языке: дис. ... д-ра филол. наук. – М., 1967. – 301 с.
6. Пищальникова В. А. Соотношение симметричных и асимметричных компонентов текста как синергетической системы // Языковое бытие человека и этноса: психолингвистический и когнитивный аспекты. – Барнаул, 1996. – С. 72–79.
7. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. – М.: ФЛИНТА, 2012. – 376 с.
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar). – Toshkent: Universitet, 2000. – 554 b.